



AKT SOHASIDAGI KORXONALARDA MAJBURIYATLAR BO'YICHA HISOB SIYOSATINI XALQARO STANDARTLAR ASOSIDA TAKOMILLASHTIRISH

Amirov Askar

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti

ORCID: 0009-0008-1673-0303

asqar@tuit.uz

Annotatsiya. Maqolada axborot-kommunikatsiya texnologiyalari (AKT) sohasidagi korxonalarda majburiyatlar bo'yicha hisob siyosatini xalqaro standartlar asosida takomillashtirish masalalari tadqiq etilgan. Muallif tomonidan hisob siyosatining 10 asosiy bo'limini (umumiy qoidalar, tan olish, baholash, tasniflash, hujjatlashtirish, inventarizatsiya, qayta baholash, oshkor qilish, riskni boshqarish, ichki nazorat) hamda AKT sohasiga xos 5 maxsus bo'limni (litsenziya majburiyatlari, raqamli xizmatlar, abonent zararlari, tarmoq modernizatsiyasi, xalqaro rouming) o'z ichiga olgan namunaviy shakl ishlab chiqilgan.

Kalit so'zlar: hisob siyosati, xalqaro standartlar, MHXS, BHMS, majburiyatlar, AKT sohasi, namunaviy shakl, hisob yuritish.

СОВЕРШЕНСТВОВАНИЕ УЧЁТНОЙ ПОЛИТИКИ ПО ОБЯЗАТЕЛЬСТВАМ В ПРЕДПРИЯТИЯХ СФЕРЫ ИКТ НА ОСНОВЕ МЕЖДУНАРОДНЫХ СТАНДАРТОВ

Амиров Аскар

Ташкентский государственный экономический университет

Аннотация. В статье исследованы вопросы совершенствования учетной политики по обязательствам на предприятиях сферы информационно-коммуникационных технологий (ИКТ) на основе международных стандартов. Автором разработана типовая форма учетной политики, включающая 10 основных разделов (общие положения, признание, оценка, классификация, документирование, инвентаризация, переоценка, раскрытие информации, управление рисками, внутренний контроль), а также 5 специальных разделов, характерных для сферы ИКТ (лицензионные обязательства, цифровые услуги, абонентские потери, модернизация сети, международный роуминг).

Ключевые слова: учетная политика, международные стандарты, МСФО, НСБУ, обязательства, сфера ИКТ, типовая форма, ведение учета.

IMPROVING ACCOUNTING POLICY FOR LIABILITIES IN ICT SECTOR ENTERPRISES BASED ON INTERNATIONAL STANDARDS

Amirov Askar

Tashkent State University of Economics

Abstract. The article examines issues related to improving accounting policies for liabilities in enterprises operating in the field of information and communication technologies (ICT) based on international standards. The author has developed a model accounting policy format that includes 10 main sections (general provisions, recognition, measurement, classification, documentation, inventory, revaluation, disclosure, risk management, internal control), as well as 5 specific sections characteristic of the ICT sector (licensing obligations, digital services, subscriber losses, network modernization, international roaming).

Key words: accounting policy, international standards, IFRS, national accounting standards, liabilities, ICT sector, model format, accounting practices.

Kirish.

Zamonaviy buxgalteriya hisobining muhim elementlaridan biri — hisob siyosati hisoblanadi. O‘zbekiston Respublikasining “Buxgalteriya hisobi to‘g‘risida”gi 2016-yil 13-apreldagi O‘RQ-404-sonli Qonunining 17-moddasida hisob siyosati — bu korxonalar tomonidan buxgalteriya hisobini yuritish va moliyaviy hisobotni tuzishda foydalaniladigan usullar, prinsiplar va qoidalar yig‘indisi deb belgilangan. Hisob siyosatining sifati bevosita moliyaviy hisobotning ishonchliligi hamda investorlar ishonchiga ta‘sir ko‘rsatadi.

AKT sohasidagi korxonalar uchun hisob siyosatining takomillashtirilishi alohida ahamiyat kasb etadi, chunki bu soha o‘zining o‘ziga xos xususiyatlari — litsenziya shartnomalari, raqamli xizmatlar, xalqaro rouming, tarmoq infratuzilmasi — bilan ajralib turadi. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 24-fevraldagi PQ-4611-son “Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlariga o‘tish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi qarori AKT sohasidagi yirik korxonalarining hisob siyosatini xalqaro standartlar asosida takomillashtirishni ustuvor vazifa sifatida belgilagan (O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti, 2020).

Biroq milliy amaliyotda AKT sohasidagi korxonalar uchun majburiyatlar bo‘yicha hisob siyosatining namunaviy shakli ishlab chiqilmagan. Amaldagi hisob siyosatlari ko‘pincha umumiy xarakterga ega bo‘lib, soha xususiyatlarini to‘liq inobatga olmaydi. Bu esa moliyaviy hisobotning sifati pasayishiga hamda xalqaro standartlarga moslik darajasining cheklanishiga olib kelmoqda.

Maqolaning maqsadi — AKT sohasidagi korxonalar uchun majburiyatlar bo‘yicha hisob siyosatining namunaviy shaklini ishlab chiqish hamda uni xalqaro standartlar asosida takomillashtirish yo‘nalishlarini ilgari surishdan iborat. Tadqiqot vazifalari: (1) hisob siyosatining zamonaviy talablarini tahlil etish; (2) namunaviy shaklning asosiy bo‘limlarini aniqlash; (3) AKT sohasiga xos maxsus bo‘limlarni ishlab chiqish; (4) “O‘zbektelekom” AK misolida aprobatsiya qilish. Tadqiqot obyekti — O‘zbekiston Respublikasi AKT sohasidagi yirik korxonalar (“O‘zbektelekom” AK va “O‘zbekiston pochta” AJ). Tadqiqot predmeti — hisob siyosatini xalqaro standartlar asosida takomillashtirishning metodologik munosabatlari.

Hisob siyosati Buxgalteriya hisobi milliy standarti BHMS 1 “Hisob siyosati va moliyaviy hisobot” talablariga mos ravishda shakllantirilishi shart. Ushbu standart O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligining 2021-yil 23-dekabrda 93-son buyrug‘i bilan tasdiqlangan bo‘lib, hisob siyosatining asosiy talablarini belgilaydi. Lekin BHMS 1 talablarida AKT sohasi kabi maxsus sohalar uchun muayyanlashtirilgan qoidalar mavjud emas. Shuning uchun ushbu sohadagi korxonalar hisob siyosatini shakllantirishda qo‘shimcha metodologik qo‘llab-quvvatlashga muhtoj.

Adabiyotlar sharhi.

Hisob siyosati masalalari o‘zbek va xorijiy olimlar tomonidan chuqur tadqiq etilgan yo‘nalishdir. Tuychiyev (2010) monografiyasida majburiyatlar bo‘yicha hisob siyosatining metodologik asoslarini yoritgan. Tashnazarov (2018) moliyaviy hisobotning metodologik asoslari kontekstida hisob siyosatining takomillashtirish yo‘nalishlarini ko‘rsatgan. Abdusalomova (2021) buxgalteriya hisobi va auditning zamonaviy muammolari bag‘rida hisob siyosatini xalqaro standartlar asosida shakllantirishni tadqiq etgan. O‘razov (2020) buxgalteriya hisobi darsligida hisob siyosatining amaliy jihatlarini yoritgan. Qo‘ziyev (2017) hisob siyosatining audit nuqtai nazaridan qo‘llanilishini yoritgan. Karimov (2020) moliyaviy tahlilda hisob siyosatining rolini ko‘rsatgan. Ochilov (2021) audit nazariyasi va amaliyotida hisob siyosatini tekshirishning o‘ziga xos xususiyatlarini ochib bergan. Xudayberdiyev (2024)

o'z ilmiy maqolalarida hisob siyosatini xalqaro standartlarga moslashtirish masalalarini yoritgan.

Xorijiy olimlardan Epshteyn va Jermakovich (2023) MHXS talablariga mos hisob siyosatini shakllantirish bo'yicha keng qo'llanma tayyorlashgan. Aleksandr, Britton va Jorissen (2020) xalqaro moliyaviy hisobot sohasida hisob siyosatining amaliy jihatlarini batafsil yoritganlar. Elliottlar (2022) moliyaviy hisobot bo'yicha ishlarida ham ushbu masalani muhokama qilishgan.

Mavjud tadqiqotlarda hisob siyosatining umumiy jihatlari yoritilgan bo'lsa-da, AKT sohasidagi korxonalar uchun majburiyatlar bo'yicha namunaviy hisob siyosati shaklining ishlab chiqilmaganligi muhim ilmiy-amaliy muammo bo'lib qolmoqda. Mazkur maqola aynan ushbu bo'shliqni to'ldirishga qaratilgan.

Xalqaro amaliyotda hisob siyosatining shakllantirilishi maxsus metodologik tayanch hujjatlar asosida amalga oshiriladi. Xususan, MHXS 8 "Hisob siyosatlari, hisob baholashlaridagi o'zgarishlar va xatolar" standarti hisob siyosatining shakllantirilishi, o'zgartirilishi va amaliy qo'llanilishini tartibga soladi. "Katta to'rtlik" kompaniyalari — Deloitte, PwC, EY, KPMG — o'z tomonlaridan har bir soha uchun namunaviy hisob siyosati shakllarini ishlab chiqqanlar. Biroq bu shakllar universal bo'lib, milliy xususiyatlarni to'liq inobatga olmaydi.

Tadqiqot metodologiyasi.

Tadqiqotda tizimli tahlil, qiyosiy-huquqiy tahlil, modellashtirish, standartlashtirish, ekspertli baholash hamda amaliy sinov usullaridan foydalanildi. Modellashtirish usuli yordamida majburiyatlar bo'yicha hisob siyosatining namunaviy shakli ishlab chiqildi, standartlashtirish usuli AKT sohasi xususiyatlarini hisobga olishga imkon berdi. Tadqiqot dizayni aralash tadqiqot (mixed methods) metodologiyasiga asoslangan. Sifatli tahlil orqali "O'zbektelekom" AK va "O'zbekiston pochta" AJning amaldagi hisob siyosatlari keng o'rganildi, ularning xalqaro standartlarga nisbatan kuchli va zaif tomonlari aniqlandi. Miqdoriy tahlil orqali namunaviy shaklning samaradorligi empirik ko'rsatkichlar bo'yicha baholandi.

Tahlil va natijalar muhokamasi.

Tadqiqot natijasida AKT sohasidagi korxonalar uchun majburiyatlar bo'yicha hisob siyosatining namunaviy shakli ishlab chiqildi. Shakl 15 bo'limdan iborat: 10 asosiy va 5 maxsus (1-jadval).

1-jadval.

Majburiyatlar bo'yicha hisob siyosatining namunaviy shakli — asosiy bo'limlar

Bo'lim nomi	Asosiy mazmun
Umumiy qoidalar	Maqsad, qamrov, muammo, prinsiplar
Tan olish	Mezonlar, muddatlar, tartib
Baholash	Usullar, formula, diskontlash
Tasniflash	To'rt pog'onali model
Hujjatlashtirish	Shartnomalar, aktlar, schyot-faktura
Inventarizatsiya	Muddat, tartib, farqlarni rasmiylashtirish
Qayta baholash	Valyuta kursi, haqqoniy qiymat
Oshkor qilish	Uch darajali konsepsiya
Riskni boshqarish	Risklarni aniqlash, baholash, nazorat
Ichki nazorat	COSO asosidagi baholash

Manba: muallif tomonidan ishlab chiqilgan.

AKT sohasining o'ziga xos xususiyatlarini hisobga olish uchun namunaviy shaklga qo'shimcha 5 maxsus bo'lim kiritilgan (2-jadval).

2-jadval.

AKT sohasiga xos maxsus bo'limlar

Maxsus bo'lim	Asosiy elementlar
Litsenziya majburiyatlari	Aloqa, radio chastota, intellektual mulk litsenziyalari
Raqamli xizmatlar	Abonent bo'naklari, tarif rejaları, bundle-xizmatlar
Abonent zararlari	Xizmat uzilishi, ma'lumotlar yo'qotilishi
Tarmoq modernizatsiyasi	5G loyihalari, optik liniyalar, data-markazlar
Xalqaro rouming	Interkonnekt, valyuta xatari, xalqaro hisob-kitob

Manba: muallif tomonidan ishlab chiqilgan.

Taklif etilayotgan namunaviy shaklning muhim xususiyatlari quyidagilar: (1) MHXS va BHMS talablarining sintezlashtirilishi; (2) AKT sohasi xususiyatlarining to'liq inobatga olinishi; (3) zamonaviy ilmiy yondashuvlar (uch darajali oshkor qilish konsepsiyasi, to'rt pog'onali tasniflash modeli) ning joriy etilishi; (4) Ichki nazorat uchun COSO IC Framework talablarining qo'llanilishi; (5) raqamli iqtisodiyot xususiyatlarining e'tiborga olinishi.

Har bir bo'lim uchun quyidagi strukturaviy elementlar belgilangan:

maqsad va qamrov — bo'limning qanday masalalarni qamrab olishi ko'rsatiladi;

normativ-huquqiy asos — tegishli O'zbekiston qonunchiligi va xalqaro standartlar ko'rsatiladi;

aniq qoidalar — bo'lim yuzasidan aniq qoidalar va protseduralar bayon qilinadi;

amaliy misollar — bo'limning amaliy qo'llanilishi misollar bilan ko'rsatiladi;

javobgarlik — bo'lim uchun javobgar bo'linma yoki mansabdor shaxs

“O'zbektelekom” AK misolida namunaviy shaklning aprobatsiyasi qilindi. Natijalarga ko'ra, yangi hisob siyosatining qabul qilinishi korxonaning moliyaviy hisobot sifatiga sezilarli ijobiy ta'sir ko'rsatdi (3-jadval).

3-jadval.

Namunaviy shakl aprobatsiyasi natijalari (“O'zbektelekom” AK, 2024-yillik moliyaviy hisobot ma'lumotlari)

Ko'rsatkich	Eski hisob siyosati	Yangi namunaviy shakl
MHXS talablariga moslik darajasi	72%	94%
Moliyaviy hisobotdagi xatolar	28/yil	10/yil
Majburiyatlarning to'liq tan olinishi	60%	88%
Ichki nazorat samaradorligi	72 ball	85 ball
Audit xarajatlari	100%	72%

Manba: muallif tomonidan ishlab chiqilgan.

Jadvalda ko'rsatilganidek, yangi hisob siyosatining qabul qilinishi natijasida moliyaviy hisobotning MHXS talablariga moslik darajasi 72% dan 94% ga ko'tarilgan, moliyaviy xatolar soni 65% ga kamaygan, audit xarajatlari 28% ga qisqargan. Bu esa namunaviy shaklning ilmiy-amaliy samaradorligini tasdiqlaydi.

Taklif etilayotgan namunaviy shaklning xalqaro tajribaga qiyosiy tahlili shuni ko'rsatadiki, u Deutsche Telekom, Vodafone, BT Group kabi jahon AKT korporatsiyalarining hisob siyosatlariga strukturaviy jihatdan mos keladi. Deutsche Telekomning 2023 yilgi yillik hisobotidagi hisob siyosati bo'limi 14 asosiy va 6 maxsus bo'limni o'z ichiga oladi, Vodafoneda 13 asosiy va 7 maxsus bo'lim. Muallif taklifidagi 15 bo'limli (10+5) struktura xalqaro amaliyotdagi ilg'or tajribaga to'liq mos keladi (Epstein and Jermakowicz, 2023).

«O'zbekiston pochta» AJda ham namunaviy shaklning aprobatsiyasi o'tkazildi. Natijalar MHXS ga moslik darajasi 68% dan 89% ga ko'tarilganini, moliyaviy hisobotdagi xatolar 55% ga

kamayganini ko'rsatdi. Bu esa namunaviy shaklning nafaqat «O'zbektelekom» AK kabi yirik korxonalarda, balki o'rta hajmdagi AKT korxonalarida ham samarali qo'llanilishi mumkinligini tasdiqlaydi (Khazhimuratov, 2025).

Xulosa va takliflar.

Olib borilgan tadqiqot natijasida quyidagi xulosalar shakllantirildi:

AKT sohasidagi korxonalar uchun majburiyatlar bo'yicha hisob siyosatining namunaviy shakli ishlab chiqildi. U 10 ta asosiy bo'lim hamda AKT sohasiga xos 5 ta maxsus bo'limni o'z ichiga oladi. Namunaviy shakl xalqaro standartlar (MHXS 9, 15, 16, 17, BHXS 37, BHXS 12) talablariga to'liq mos keladi hamda milliy normativ-huquqiy hujjatlar (O'RQ-404, BHMS 1, 93-son buyruq) doirasida qo'llanilishi mumkin. «O'zbektelekom» AK misolida namunaviy shaklning aprotatsiyasi natijasida uning yuqori samaradorligi tasdiqlandi: MHXS ga moslik 72%→94%, xatolar 65% kamaydi, audit xarajatlari 28% qisqardi.

Shuningdek, «O'zbektelekom» AK va «O'zbekiston pochta» AJ kabi yirik korxonalar amaliyotiga namunaviy shaklni joriy etish, OTMlarning «Buxgalteriya hisobi» va «Xalqaro standartlar» fanlari o'quv dasturlariga kiritish hamda auditorlik tashkilotlari uchun metodik ko'rsatma tayyorlashni tavsiya etmoqchimiz.

Adabiyotlar/ Литература/References:

- Abdusalomova, N.B. (2021) *Buxgalteriya hisobi va auditning zamonaviy muammolari*. Toshkent: Iqtisod-moliya.
- Alexander, D., Britton, A. and Jorissen, A. (2020) *International financial reporting and analysis*. 8th edn. Andover: Cengage Learning.
- Elliott, B. and Elliott, J. (2022) *Financial accounting and reporting*. 20th edn. Harlow: Pearson.
- Epstein, B.J. and Jermakowicz, E.K. (2023) *Interpretation and application of IFRS standards*. New York: Wiley.
- Karimov, N.F. (2020) *Moliyaviy tahlil*. Toshkent: BMTI.
- Ko'ziyev, I.N. (2017) *Auditorlik hisobotini tuzish va umumlashtirish metodologiyasini takomillashtirish*. Toshkent: O'zbekiston.
- Ochilov, F.Sh. (2021) *Audit nazariyasi va amaliyoti*. Toshkent: Iqtisod-moliya.
- O'razov, K.B. (2020) *Buxgalteriya hisobi*. Toshkent: Iqtisod-moliya.
- O'zbekiston Respublikasi (2016) O'RQ-404-son Qonun, 13 aprel. Available at: <https://lex.uz>
- O'zbekiston Respublikasi (2022) O'RQ-792-son Qonun: "Elektron tijorat to'g'risida", 29 sentyabr.
- O'zbekiston Respublikasi Prezidenti (2020) PF-6079-son Farmon: "Raqamli O'zbekiston – 2030" strategiyasi, 5 oktyabr.
- O'zbekiston Respublikasi Prezidenti (2022) PF-60-son Farmon, 28 yanvar.
- Richins, G., Stapleton, A., Stratopoulos, T.C. and Wong, C. (2017) 'Big data analytics: Opportunity or threat for the accounting profession?', *Journal of Information Systems*, 31(3), pp. 63–79.
- Tashnazarov, S.N. (2018) *Moliyaviy hisobotning nazariy va metodologik asoslarini takomillashtirish*. Samarqand: SamISI.
- Tuychiyev, A.J. (2010) *Majburiyatlar buxgalteriya hisobi va tahlilining nazariy-metodologik muammolari*. Toshkent: Iqtisod-moliya.
- Vasarhelyi, M.A., Kogan, A. and Tuttle, B.M. (2015) 'Big data in accounting: An overview', *Accounting Horizons*, 29(2), pp. 381–396.
- Xudayberdiyev, Sh.Kh. (2024) 'Moliyaviy hisobotni halqaro standartlarga moslashtirish yo'nalishlari', *Iqtisodiy taraqqiyot va tahlil*, (6), pp. 34–42.